

**RENESSANS TA'LIM UNTVERSITETI**

**FILOLOGIYA VA TARIX FAKULTETI**

**“IJTIMOIY - SIYOSIY FANLAR” KAFEDRASI**

**M.Yu.Ibragimova, J.Ismoilov, Z.Turaboeva**

**“O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYO‘T STRATEGIYASI”**

**FANIDAN SEMINAR MASHG‘ULOTLARI UCHUN**

**USLUBIY KO‘RSATMA**

**Toshkent - 2024**

Mazkur uslubiy ko'rsatma talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda "O'zbekistonning taraqqiyo't strategiyasi" fanidan ma'ruza va seminar mashg'ulotini tayorlashda foydalanishi mumkin bo'lgan ilg'or pedagogik texnologiyalar, mustaqil ta'lim ishlari mavzulari, shuningdek, mavzulariga doir adabiyotlar ro'yxati keltirilgan

**Tuzuvchi:**

t.f.n., dotsent M.Yu.Ibragimova, katta o'qituvchilar J.Ismoilov, Z.Turaboeva

**Taqrizchi:**

Renessans talim univerviteti "Ijtimoiy-siyosiy fanlar" kafedrasida dotsenti N.SH.Berdaliyev

Filologiya va tarix fakulteti "Ijtimoiy-siyosiy fanlar" kafedrasining 2024-yil "23" oktabrdagi 6-sonli majlisida muhokama qilingan.

Uslubiy ko'rsatma Renessans ta'lim universiteti Kengashining 2024-yil "26" oktabrdagi 2-sonli qaroriga muvofiq o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun tavsiya etilgan.

# **1-Ma'ruza: O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi fanining predmeti va vazifalari. Iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari.**

## **Reja:**

1. O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» fanining maqsadi va vazifalari. Fanning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.

2. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini o'rganishning ilmiy uslubiy ahamiyati.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, xayotning o'zi va xalqning talablari bizning oldimizga amaliy yechimini topish lozim bo'lgan yangi va yanada murakkab vazifalarni qo'yimoqda. Ushbu muammolar va hayotning o'zi oldimizga qo'ygan murakkab vazifalarni tezrok hal qilish, ularning yechimini izlab topish, ko'p jihatdan kishilarning iqtisodiyot sirlarini, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti munosabatlarining mazmunini, ularning talablari, ziddiyatli va chalkash xususiyatlarini, qonun-qoidalarini, mamlakatimizda iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish maqsadida qabul qilingan strategik dasturlar mazmunini, amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, inson manfaatini birinchi o'ringa qo'yish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashning maqsadi va mohiyatini chuqurroq bilishlariga bog'liqdir. Jamiyatda ro'y beradigan iqtisodiy hodisa va jarayonlarni bilish va ularning amal qilishiga ongli munosabatda bo'lishda, mamlakatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlari mohiyatini tushunish uchun zarur bo'lgan bilimlarni berishda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi fanining roli beqiyosdir.

- Mamlakatimizda 2023-2030 yillarga mo'ljallangan keng ko'lamli dasturlarni amalga oshirish asosida iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlas omili sifatida chet el investitsiyalarini keng jalb qilish; mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror o'sish sur'atlarining ta'minlanganligi to'grisida har tomonlama asoslangan, iqtisodiyot va iqtisodiy munosabatlar to'grisida milliy ko'nikmalarni xosil qilish vazifalarini bajaradi

## **Fanning vazifasi**

Talabalarni mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori barqaror o'sish sur'atlari va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar; iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishning mohiyati; tarkibiy o'zgarishlar va yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tarmoqdar va ishlab chiqarish sohalarini jadal rivojlantirish; chet el investitsiyalarini keng jalb qilish; mamlakatimiz iqtisodiyotining barkaror o'sish sur'atlarining ta'minlanganligi to'grisida har tomonlama asoslangan, iqtisodiyot va iqtisodiy munosabatlar to'grisida milliy ko'nikmalarni xosil qilish vazifalarini bajarishdan iborat.

## **Fanni o'qitishdan maqsad**

Talabalarga mamlakatimizda ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash borasida olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning mazmun-mohiyatini, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash yulida qabul qilinayotgan kompleks chora-tadbirlarni, bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinayotgan islohotlarning tub mohiyati bo'yicha nazariy-amaliy bilim va ko'nikmalarni xosil qilishdan iborat.

### **Fanning funksiyalari:**

**metodologik funksiya** - ijtimoiy –iqtisodiy fanlarning rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o‘rganishning umumiy yo‘nalishlarini belgilashda, ishlab chiqilgan me‘yorlarning dasturilamalidir.

**prognostik funksiyasi** - jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini oldindan ko‘rishga inson manfaatlarining namoyon bo‘lishida ko‘maklashish.

### **Fanni o‘rganishdagi metodlar**

ilmiylik

tarixiylik

mantiqiylik

tizimlilik

qiyosiy tahlil

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Strategiyasi so‘zi qanday ma‘noni bildiradi?
2. O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi fani nimani o‘rganadi?
3. Fanni o‘rganishda qanday metodologik tamoyillarga tayanish lozim?
- 4 O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini o‘rganishda xolislik, ilmiylik tamoyilining talablari nimalardan iborat?

### **1-Amaliy mashg‘ulot**

**Mavzu: O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi fanining predmeti va vazifalari. Iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari**

#### **Reja**

- 1.O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» fanining maqsadi va vazifalari., Fanning boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi.
- 2.O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini o‘rganishning ilmiy uslubiy ahamiyati.
- 3.Mamlakatimizda tarkibiy o‘zgarishlarni va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayonlarining davom ettirilishi.
- 4.Mamlakatimizda 2023-2030 yillarga mo‘ljallangan keng ko‘lamli dasturlarni amalga oshirish asosida iqtisodiy o‘shishning uzoq muddatli barqaror o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash

**Mavzu bo‘yicha topshiriqlar**

**1-nazorat topshiriq “Tushunchalar tahlili” metodini qo‘llagan holda berilgan topshiriqni quyidagicha bajaring:**

- |   |
|---|
| <ul style="list-style-type: none"><li>✓ O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» fani bu .....</li><li>✓ O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi fanining maqsadi.....</li><li>✓ O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi fanining vazifalari.....</li><li>✓ O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi fanining tamoyillari.....</li></ul> |
|---|


**2-topshiriq. Moslikni toping**

fanining predmeti va obyekt	inson, davlat va jamiyatdir
O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi fanining maqsadi	Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma‘rifiy asoslari yaratilishi. Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash.
O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi fanining o‘rganilishi uslublari	Tarixiy tahlil va qiyosiy taqqoslash; mantiqiy davomiylik va uzviylik; xolislik va o‘zaro hurmat tamoyiliga asoslanish; kuzatish, solishtirma taqqoslash asosida umumlashtirish va zarur xulosalar chiqarish; baxslashish, munozara yuritish va isbotlash; matematik hisoblash, shakl va modellashtirish; ayrimlikdan umumiylikka va umumiylikdan ayrimlikka o‘tish;
O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi fanining tamoyillari	Mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori barqaror o‘sish sur‘atlari va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar; iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning mohiyati; tarkibiy o‘zgarishlar va yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalarini jadal rivojlantirish; chet el investitsiyalarini keng jalb qilish; mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror o‘sish sur‘atlarining ta‘minlanganligi to‘g‘risida har tomonlama asoslangan, iqtisodiyot va iqtisodiy munosabatlar to‘g‘risida milliy ko‘nikmalarni xosil qilish
O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi fanining metodlari	tarixiy xronologik ketma-ketlik; g‘oyaviylik va vatanparvarlik;

### 3-topshiriq

**Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlarni “Klaster” grafik organayzeri yordamida yoritib bering**





- 1.Sh.Mirziyoev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T. O'zbekiston.
2. To'ychiyev B. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlanirish strategiyasi. O'quv qo'llanma O'zbekistonning eng yangi tarixi.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 25 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indeksdagi o'rni yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4210-son qarori.

## **2-ma'ruza:O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi. O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari.**

### **Reja:**

- 1.O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish konsepsiyasi va strategiyasi hamda asosiy yo'nalishlari.
2. Kichik biznesni jadal rivojlantirish, uning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini oshirish.
- 3.O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari va vazifalari. Mamlakatni modernizatsiyalash jarayonining mazmuni va uning bozor iqtisodiyotiga o'tishni ta'minlashdagi roli

Mamlakatimizni 2017 — 2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. Shuningdek, inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi

savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rildi.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

So'nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi. Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida:

**"Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi quidagi ustuvor yo'nalishlardan iborat qilib belgilandi:**

I. INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH ORQALI XALQPARVAR DAVLAT BARPO ETISH

II. MAMLAKATIMIZDA ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI TAMOYILLARINI TARAQQIYOTNING ENG ASOSIY VA ZARUR SHARTIGA AYLANTIRISH

III. MILLIY IQTISODIYOTNI JADAL RIVOJLANTIRISH VA YUQORI O'SISH SUR'ATLARINI TA'MINLASH.

IV. ADOLATLI IJTIMOY SIYOSAT YURITISH, INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH

V. MA'NAVIY TARAQQIYOTNI TA'MINLASH VA SOHANI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH

VI. MILLIY MANFAATLARDAN KELIB CHIQQAN HOLDA UMUMBASHARIY MUAMMOLARGA YONDASHISH

VII. MAMLAKATIMIZ XAVFSIZLIGI VA MUDOFAA SALOHİYATINI KUChAYTIRISH, OChIQ, PRAGMATIK VA FAOL TASHQI SIYOSAT OLIB BORISH

2026-yilga qadar ehtiyojmand aholi ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan to'liq qamrab olish.

Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimida yordamga muhtoj ayollar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar bo'yicha alohida ma'lumotlar bazasini yaratish, jumladan "Temir daftar", "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari"ni "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" bilan integratsiya qilish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida birinchi — to'rtinchi sinf o'quvchilarini Davlat budjeti mablag'lari hisobidan bepul ovqat (nonushta yoki

tushlik) bilan ta'minlash yo'lga qo'yilsin. ayollarga pensiya hisoblashda ularning bolani parvarishlash ta'tilida bo'lish vaqtining hammasini jamlaganda ish stajiga qo'shib hisoblanadigan 3 yillik davrni 6 yilga oshirish;

bolalikdan nogironligi bo'lgan bolalarga 18 yoshgacha qaralgan davrni pensiya tayinlashda ish stajiga qo'shib hisoblash.

“Fuqarolarning raqamli pasporti” loyihasini joriy qilish hisobiga aholidan tug'ilganlik to'g'risida va haydovchilik guvohnomalari, shahodatnoma va diplom kabi muayyan faktni tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish amaliyoti bekor qilish;

keksa va nogironligi bo'lgan shaxslarga davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini soddalashtirish va ularga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali qo'shimcha qulayliklar yaratish.

Taraqqiyot strategiyasini o'z vaqtida va samarali amalga oshirish barcha davlat organlari hamda ularning mansabdor shaxslari faoliyatining ustuvor vazifasi hisoblanadi.

## **2-Amaliy mashg'ulot**

**MAVZU: O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi. O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari.**

### **Reja:**

- 1.O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish konsepsiyasi va strategiyasi hamda asosiy yo'nalishlari.
2. Kichik biznesni jadal rivojlantirish, uning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini oshirish.
- 3.Tashqi savdo aylanmasini diversifikatsiya qilish, eksportning tovar va geografik tarkibini takomillashtirish.
- 4.O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari va vazifalari.
5. Mamlakatni modernizatsiyalash jarayonining mazmuni va uning bozor iqtisodiyotiga o'tishni ta'minlashdagi roli.

### **Testlar**

#### **1.Ijtimoiy himoya yagona reyestri nima?.....**

- a) axborot tizimida yordamga muhtoj ayollar bo'yicha alohida ma'lumotlar bazasini yaratish
- b) axborot tizimida yordamga muhtoj yoshlar bo'yicha alohida ma'lumotlar bazasini yaratish
- c) axborot tizimida nogironligi bo'lgan shaxslar bo'yicha alohida ma'lumotlar bazasini yaratish
- d) barcha javoblar to'g'ri.

#### **2. 2022 -2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi nechta ustuvor yo'nalishlardan iborat qilib belgilandi:**

- a) To'rtta ustuvor yo'nalish
- b) Beshta ustuvor yo'nalish
- c) Oltita ustuvor yo'nalish
- d) Ettita ustuvor yo'nalish

#### **3. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining asosiy ustuvor**



## yo'nalishlari...

- a) inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
  - b) mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
  - c) milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;
  - d) adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
  - e) ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
  - f) milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;
  - g) mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib boorish.
  - h) Barcha javoblar to'g'ri.
4. Qaysi javob fanni o'rganish metodiga kirmaydi.
- a) tarixiy tahlil va qiyosiy taqqoslash
  - b) mantiqiy davomiylik va uzviylik
  - c) vorislik va izchillik
  - d) tarixiy xronologik ketma-ketlik

<b>№</b>	<b>Mustaqil ta'lim mavzulari</b>	<b>Tayyorlash shakli</b>
1	Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ishlab chiqilishi	Manbaalar bilan ishlash (glossariy tuzish, test)
2	Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish.	Referat (glossariy tuzish, test)
3	Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish.	Esse, (glossariy tuzish, test)
4	Bozor iqtisodiyotiga o'tishning milliy modellari	Esse, (glossariy tuzish, test)
5	O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari va vazifalari.	Referat (glossariy tuzish, test)
	Iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari	Referat (glossariy tuzish, test)
	O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi.	Referat (glossariy tuzish, test)
	O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari.	Esse, (glossariy tuzish, test)
	O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari	Referat (glossariy tuzish, test)

## Adabiyotlar

1.Sh.Mirziyoev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T. O'zbekiston.

2. To'ychiyev B. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlanirish strategiyasi. O'quv qo'llanma  
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 25 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4210-son qarori.

**3-Ma'ruza: Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ishlab chiqilishi. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish hamda qonun ustuvorligini ta'minlash iqtisodiy taraqqiyotning omili sifatida.**

### **Reja**

**1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining maqsad va vazifalari.**

**2. Taraqqiyot strategiyasining asosiy yo'nalishlari.**

2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida quidagi vazifalarni amalga osirish belgilandi,

**I. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.**

Davlat boshqaruvi tizimida ma'muriy apparatni ixchamlashtirish va ish jarayonlarini maqbullashtirish.

Mamlakatimizdagi islohotlarni izchil davom ettirishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish

Norma ijodkorligi jarayonini modernizatsiya qilish, qonunchilik hujjatlarining qat'iy ijrosini ta'minlash.

“Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini 100 foizga yetkazish hamda byurokratiyani bartaraf etish.

- Davlat fuqarolik xizmati tizimini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish .

- Xalq bilan muloqotning mexanizmlarini takomillashtirish.

- Ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.

**II. MAMLAKATIMIZDA ADOLAT VA QONUN 15-USTUVORLIGI TAMOYILLARINI TARAQQIYOTNING ENG ASOSIY VA ZARUR SHARTIGA AYLANTIRISH**

Mulkiy huquqlarning daxlsizligini ishonchli himoya qilish hamda davlat organlarining mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklash.

Mahkumlar va jazoni o'tab bo'lgan shaxslarning mehnat, ijtimoiy ta'minot va xalqaro e'tirof etilgan boshqa huquqlarini ta'minlash

Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik sub'ektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish

Jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlarini, inson qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini

samarali himoya qilishga yo'naltirish.

### **III.MILLIY IQTISODIYO'TNI JADAL RIVOJLANTIRISH VA YuQORI O'SISH SUR'ATLARINI TA'MINLASH**

- Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda “daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish.

-Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish

### **IV.ADOLATLI IJTIMOIIY SIYOSAT YuRITISH, INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH**

Pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish.

Ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayligini oshirish maqsadida respublika hududlarida tibbiyot klasterlarini tashkil etish.

Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, budget mablag'laridan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug'urtalash amaliyotini joriy qilish.

Tibbiy asbob-uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish.

Dori-darmon va tibbiy buyumlar muomalasini tartibgasolish hamda aholiga arzon va sifatli mahsulotlar yetkazib berish tizimini takomillashtirish.

Birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, sohaga ajratiladigan mablag'larni oshirish.

Reproduktiv yoshdagi va homilador ayollar, bolalar uchun yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish.

### **V.MA'NAVIY TARAQQIYOTNI TA'MINLASH VA SOHANI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH.**

Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish. - Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash.

Tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish.

Madaniyat va san'at sohalarini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari va ob'ektlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash.

O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilishni yanada rivojlantirish.

Milliy kino san'atini rivojlantirish.

Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash.

### **VI.MILLIY MANFAATLARDAN KELIB CHIQQAN HOLDA UMUMBASHARIY MUAMMOLARGA YO'NDASHISH.**

Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish.

Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish.

O‘rmonlar maydonini kengaytirish.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish.

Davlat xizmatida halollik standartlarini joriy etish.

Korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.

Mamlakatda yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026 yil yakuniga qadar kambag‘allikni kamida 2 baravarga qisqartirish.

Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini ta‘minlash hamda samarali migratsiya siyosatini yuritish.

## **VII.MAMLAKATIMIZ XAVFSIZLIGI VA MUDOFAA SALOHIYATINI KUChAYTIRISH, OChIQ, PRAGMATIK VA FAOL TASHQI SIYOSAT OLIB BORISH.**

Markaziy Osiyoda xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, suv,energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalaridagi yaqin hamkorlikni sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqish. An‘anaviy hamkorlarimiz bilan munosabatlarni yanadarivojlantirish, tashqi aloqalar geografiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratib, iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish.

O‘zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti organlari va institutlari, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviyva gumanitar tashkilotlardagi faoliyatini kuchaytirish. Jahon hamjamiyatida mamlakatimiz imidjini oshirishga qaratilgan axborotlar yetkazish samaradorligini oshirish.

Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.

O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari tomonidan O‘zbekistonning chet ellardagi fuqarolariga xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish.

### **3-Amaliy mashg‘ulot:**

**Mavzu:Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ishlab chiqilishi. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish hamda qonun ustuvorligini ta‘minlash iqtisodiy taraqqiyotning omili sifatida.**

#### **Reja:**

- 1.Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining maqsad va vazifalari.
- 2.Taraqqiyot strategiyasining asosiy yo‘nalishlari: davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-xuquq tizimini yanada isloh qilish.
- 3.Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ishlab chiqilishi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar. Mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish
4. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish. Jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish. Sud xokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning xuquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlas

#### ***Topshiriq***

Taraqqiyot strategiyasining asosiy yo'nalishlarini izohlab bering.

<b>Savol</b>	
(F) Fikringizni bayon yeting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U)Fikringizni umumlashtiring	

### Topshiriq.

#### Muammoli vaziyat

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining maqsad va vazifalari va yechimlarini o'rganish.

Qo'yilgan vazifalar	
Qo'yilgan vazifalarni hal qilish usullari va yechimi	
Qo'yilgan vazifalarni hal qilishning istiqbolli rejalari	
UQo'yilgan vazifalarni hal qilishdan erishilgan natijalar	


#### Test

- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qaysi yillarga mo'ljallangan?
- 2021-2024 y.y
- 2022-2025y.y
- 2022-2026y.y
- 2023-2025y.y

**“Tushunchalar tahlili” metodini qo'llagan holda berilgan topshiriqni quyidagicha bajaring:**

<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining maqsadi.....</li> <li>✓ Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining vazifalari bu.....</li> <li>    Davlat xizmatida halollik standartlarini joriy etish. bu.....</li> <li>✓ Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish.inklyuziv ta'lim bu.....</li> <li>✓ Sud xokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash bu.....</li> </ul>
--

Klaster" grafik organayzeri yordamida yoritib bering



<b>№</b>	<b>Mustaqil ta'lim mavzulari</b>	<b>Tayyorlash shakli</b>
1	Xalq bilan muloqotning mexanizmlarini takomillashtirish.	Manbaalar bilan ishlash (glossariy tuzish, test)
2	Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish.	Referat (glossariy tuzish, test)
3	Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish.	Esse, (glossariy tuzish, test)
4	Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ishlab chiqilishi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar.	Esse, (glossariy tuzish, test)
5	Sud xokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning xuquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash.	Referat (glossariy tuzish, test)
6	Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini	(glossariy tuzish,

	chuqur o'rganish va keng targ'ib etish. -	test)
7	Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash	Esse, (glossariy tuzish, test)
8	Davlat xizmatida halollik standartlarini joriy etish.	Referat (glossariy tuzish, test)

### **Adabiyotlar**

1. Sh. Mirziyoev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T. O'zbekiston.
2. To'ychiyev B. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlanirish strategiyasi. O'quv qo'llanma O'zbekistonning eng yangi tarixi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 25 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4210-son qarori.

#### **4 - Ma'ruza: Ijtimoiy sohani rivojlantirish va aholi daromadlari. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda investitsiya va tashqi siyosat.**

##### **Reja:**

1. Ijtimoiy sohani rivojlantirish borasidagi islohotlar.
2. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirilishi. Ijtimoiy himoya tizimi va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish.
3. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish.
4. Ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish.
5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.

Ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayligini oshirish maqsadida respublika hududlarida tibbiyot klasterlarini tashkil etish. Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, budjet mablag'laridan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug'urtalash amaliyotini joriy qilish. Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish. Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish. 2026 yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish.

Malakali o'qituvchilarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1000 AQSh dollari ekvivalentiga yetkazish. Maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog- kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bosqichma-bosqich bepul ovqat bilan ta'minlash. Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish. 2026 yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va THE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash. Qariyb 100 ming o'rinli talabalar turar joylarini barpo etish. 2026 yilgacha nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari soni kamida 50 taga yetkazish. Pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish. Ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayligini oshirish maqsadida respublika hududlarida tibbiyot klasterlarini tashkil etish. Aholiga ko'rsatilayotgan

tibbiy xizmat sifatini oshirish, budget mablag'laridan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug'urtalash amaliyotini joriy qilish. Tibbiy asbob-uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish. Dori-darmon va tibbiy buyumlar muomalasini tartibgasolish hamda aholiga arzon va sifatli mahsulotlar yetkazib berish tizimini takomillashtirish. Birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, sohaga ajratiladigan mablag'larni oshirish. Reproduktiv yoshdagi va homilador ayollar, bolalar uchun yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish. Tibbiy xizmatlardagi xususiy sektorning ulushini 25 foizga yetkazish. Mamlakatda ishlab chiqariladigan dori-darmon va tibbiyot vositalarining ulushini 80 foizga yetkazish. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xalqaro maqomga ega laboratoriyalarini tashkil etish. Hududlarda birlamchi tibbiy xizmatni "bir qadam" tamoyili asosida tashkil etish. Malakali shifokorlarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSh dollari ekvivalentiga yetkazish qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish. Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning sonini oshirish. Olimpiya va Paralimpiya harakatini rivojlantirish. Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash.. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.

#### **4- Amaliy mashg'ulot**

**Mavzu: Ijtimoiy sohani rivojlantirish va aholi daromadlari. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda investitsiya va tashqi siyosat.**

##### **Reja:**

1. Ijtimoiy sohani rivojlantirish borasidagi isloxotlar
2. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirilishi. Ijtimoiy himoya tizimi va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish
3. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish.
4. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish. barasida qanday ishlar amalga oshirildi.

<b>№</b>	<b>Mustaqil ta'lim mavzulari</b>	<b>Tayyorlash shakli</b>
1	Ijtimoiy sohani rivojlantirish borasidagi isloxotlar	(glossariy tuzish, test)
2	Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish.	Referat (glossariy tuzish, test)
3	Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.	Esse, (glossariy tuzish, test)
4	.Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirilishi.	Referat (glossariy tuzish, test)
5	Ijtimoiy himoya tizimi va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish	Esse, (glossariy tuzish, test)
6	Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi	Referat (glossariy



	bosqichga olib chiqish	tuzish, test)
7	Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda investitsiya va tashqi siyosat.	Esse, (glossariy tuzish, test)
8	Olimpiya va Paralimpiya harakatini rivojlantirish.	Referat (glossariy tuzish, test)
9	.Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash..	Esse, (glossariy tuzish, test)
10	Maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish	Referat (glossariy tuzish, test)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini necha foizga yetkazish mo'ljallangan?
2. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish borasida qanday vazifalar belgilangan?
3. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yo'shlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish borasida qanday vazifalar belgilangan?
4. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda nimalarga e'tibor berilgan?
5. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida Ijtimoiy himoya tizimi va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirishda nimalarga e'tibor berilgan?
6. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog- kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqishda qanday vazifalar belgilan


### Topshiriq.

#### T-sxema jadvali

Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining afzalligi nimada?	Aksincha-chi?


## Mavzu bo'yicha topshiriqlar

**1- topshiriq.** Hozirgi kunda mamlakatimiz qaysi reyting va indekslarda quyidagi pog'onalarda qolmoqda "Baliq skeleti" sxemasi yordamida yoritib bering.



### Adabiyotlar

- 1.Sh.Mirziyoev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T. O'zbekiston.
2. To'ychiyev B. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlanirish strategiyasi. O'quv qo'llanma O'zbekistonning eng yangi tarixi.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 25 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4210-son qarori.




# YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI

## 5 MA'NAVIY TARAQQIYOT

- 1 Ma'naviy yangilanish: imkoniyat va istiqbollar
- 2 Yangi ma'naviy makonni yaratish borasidagi vazifalar
- 3 Ma'rifiy islohotlar va barkamol inson tarbiyasi
- 4 Yangi O'zbekiston va ma'naviy yangilash
- 5 Ma'rifatli jamiyat sari
- 6 Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi

IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI



## MA'NAVIY YANGILANISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR

Globalashuv va axborot xurujlari, turli buzg'unchi g'oyalar ta'sirida milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarimizga qarshi tahdid va xatarlar tobora kuchaymoqda. Xudbinlik ya'ni o'zini o'ylash, hayotga, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati singari illatlar turli yo'llar bilan aholi, ayniqsa yoshlar ongiga singdirilmoqda.



## MA'NAViy YANGILANISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR

**Uzliksiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish lozim va bunda o'sib kelayotgan avlodning yosh xususiyatlari va intilishlarini hisobga olish zarur.**

Milliy ma'naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimining ahamiyati katta. Afsuski, hozirgi vaqtda bu fanlar rivoji, ular munosib ilmiy-amaliy va ta'lim-tarbiyaviy tizimini yangilash va optimallashtirish jarayoni zamondan ortda qolmoqda.





Istiqbolda bu sohada amalga oshirishimiz kerak bo'lgan faoliyat ko'lami va salmog'i, ahamiyati va yo'nalishlari, bu jabhada ham natijadorlikka erishish zarurligi **O'zbekistonning 2022-2032-yillarga mo'ljallangan ma'naviy taraqqiyot strategiyasini** ishlab chiqishni va uni davlat siyosatining tarkibiy qismiga aylantirishni talab qilmoqda.

Bu muhim vazifa, o'z navbatida, ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot va badiiy ijodiyot sohalarining ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotidagi ta'sirchanligini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlarni taqazo etmoqda.



## MA'NAViy YANGILANISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR



**Biz taqdim etayotgan strategiyaning maqsadi** milliy o'ziga hosligimizni, asrlar sinovidan o'tgan an'alarimizni, immon-e'tiqod bilan yashash kabi hayotiy tamoyillarimizni ham saqlab qolish, ham yuksaltirishga qaratilgandir.

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash – davr talabi.

12

[https://t.me/fitimoiv\\_manaviy\\_tadqiqotlar](https://t.me/fitimoiv_manaviy_tadqiqotlar)

## YANGI MA'NAViy MAKONNI YARATISH BORASIDAGI VAZIFALAR



Azaliy milliy qadriyatlarimiz, otabobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan odob-axloq qoidalarining butunlay yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida, ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish g'oyat birlamchi vazifamizdir.



2

[https://t.me/fitimoiv\\_manaviy\\_tadqiqotlar](https://t.me/fitimoiv_manaviy_tadqiqotlar)



Dunyo shiddat bilan o'zgarib borayotgan barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turdagi yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviy va ma'rifatga, aholi barcha qatlamlarining axloqiy tarbiyasi, e'tibor qaratish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.





**Uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish lozim.**

**“Tarbiyada tanaffus bo‘lmaydi”**, degan chuqur ma'noli gapni ko'p takrorlaymiz. Lekin, afsuski, joylarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ana shu qoidaga amal qilinmayapti.







Yana bir muhim masala. Mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash hokimlar – hududiy kengashlar raislarining doimiy e'tibor markazida bo'lishi shart.

Bu borada, ayniqsa, **“Bir ziyoli – bir mahallaga ma'naviy homiy”** tamoyili asosida har bir mahallaga professor-o'qituvchilar va taniqli ziyolilarning jalb etilayotgani, ularning bu ishga mas'uliyat va kuyunchaklik bilan yondashishga erishish muhim ahamiyatga ega, deb o'ylaymiz.



Biz **“Har bir nuroniy – besh nafar yoshga murabbiy”** tamoyili bo'yicha muhtaram oqsoqollarimiz, kayvoni onaxonlarimizni tarbiyasi og'ir, ma'naviy ko'makka muhtoj, uyushmagan, ishsiz yoshlarga biriktirib qo'yishga qaratilgan ibratli tashabbusni qo'llab-quvvatlashni davom ettiramiz.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi taniqli olim va ijodkorlarni jalb etgan holda, **“Buyuk sarkardalarimizning jasorati va harbiy merosi”** turkumida tarixiy-badiiy risolalarni tezroq tayyorlab, ko'proq adadda nashr etishni yo'lga qo'yishi lozim.





Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, yuksak ma'anaviyatli, shu bilan birga, bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash, tafakkur va zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.



Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, yuksak ma'anaviyatli, shu bilan birga, bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash, tafakkur va zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.





Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz kerak: **milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi.**

Shuning uchun ham biz tariximizning barcha bosqichlarini yaxlit holda qabul qilib, har tomonlama chuqur o'rganishimiz zarur.

O'tmishdagi yutuq va g'alabalardan kuch-quvvat olib, xato va mag'lubiyatlaridan xulosa va saboq chiqarib yashaydigan xalq o'zining taraqqiyot yo'li va kelajagini to'g'ri belgilay oladi.



Navbatdagi dolzarb vazifa – joylarda, hususan, mahallalarda, xotin-qizlar o'rtasida olib borilayotgan ma'rifiy-tarbiyaviy ishlar samaradorligini kuchaytirish bilan bog'liq.

Shu ma'noda, necha yuz yillik tarix va madaniyatimiz, milliy o'zligimizning ajralmas qismiga aylanib ketgan muqaddas dinimizni asrash, ajdodlarimizning bebaho ma'naviy-ma'rifiy merosini o'rganish va targ'ib etish biz uchun doimiy kun tartibida turadigan muhim masala bo'lib qolmoqda.





Murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarning salbiy ta'siri ortib, odamlarning ongi va qalbi uchun kurash kuchayib borayotgan bugungi kunda yurtimiz sarhadlari va mamlakatimiz hayotining barcha sohalarini **g'oyaviy himoyalash** ishlari zamon talablari, islohot va yangilanishlar sur'atidan ortda qolmoqda va bu tashvishli hol, albatta. Ushbu masalalarni o'rganish borasidagi ilmiy tadqiqotlar esa, tor doirada amalga oshirilmogda. Ularning ba'zilari hozirgi hayot voqeayligi va uning talablaridan uzilib qolgan, ayrimlarining natijalari amaliyotga sust joriy etilayotgani ham kutilgan samarani bermayapti.

2


[https://t.me/iftimoiy\\_manaviy\\_tadqiqotlar](https://t.me/iftimoiy_manaviy_tadqiqotlar)


Necha yuz yillar davomida shakllangan asl insoniy qadriyatlarimiz o'rnini buzg'unchi g'oyalar egallab olishiga yo'l qo'ymasligimiz zarur.

Biz ta'lim tizimiga, o'qituvchi va murabbiylar nufuzini oshirishga katta ahamiyat berayapmiz. Chunki **jaholatga qarshi – ma'rifat, g'oyaga qarshi – g'oya bilan kurashish zarur**, degan tamoyil hamon dolzarb bo'lib kelmoqda. Lekim Vatan, xalq taqdiri o'rtada turganda, nafaqat g'oya, kerak bo'lsa, qonun ham o'z kuchini ko'rsatishi shart.

7


[https://t.me/iftimoiy\\_manaviy\\_tadqiqotlar](https://t.me/iftimoiy_manaviy_tadqiqotlar)



Aynan ana shunday fazilatlarimizga tayanib, biz **boshqalarga ergashuvchi emas, aksincha, doimo ergashtiruvchi xalq bo‘lib kelganmiz. Bilim, ma’rifat, madaniyat bilan boshqalarga o‘rnak bo‘lganmiz.** Bu – bizning qon-qonimizga, zotu zurriyodimizga singib ketgan, qadriyatimizga aylangan fazilat.

**Manaviyatimiz uchun eng katta xavf – bu aksariyat odamlarimizdagi loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganida, desak, bu ham ayni haqiqat bo‘ladi.**



## MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGI



Mamlakatimizda 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. Etnik o‘ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg‘unlashtirishda 140 ga yaqin milliy madaniy markaz yetakchi rol o‘ynamoqda. Ular o‘ziga xos madaniyat, tili, urf-odat va an‘analarini, xalq hunarmandchiligini rivojlantirib, turli madaniyatlarning bir-birini o‘zaro boytishiga, har birimizda ko‘pmillatli yagona oila tuyg‘usini mustahkamlashga salmoqli hissa qo‘shmoqda.



## MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR UYG'UNLIGI




Biz xalqimiz, avvalo yosh avlodimiz, shuningdek, jahon jamoatchiligiga islom dinining insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz.

**Islom dini – avvalo, tinchlik va do'stlik, ahlik va birdamlik, bilim va ma'rifat dinidir.** Mana shu oliy haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz lozim.

**Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi.**

Ma'rifatparvar bobomiz **Mahmudxo'ja Behbudiyning** "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir", degan so'zlari bugun ham dolzarb ahamiyatga ega.



8

[https://t.me/iftimoiy\\_manaviy\\_tadqiqotlar](https://t.me/iftimoiy_manaviy_tadqiqotlar)

## MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR UYG'UNLIGI



Bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan harakatlarimiz butun dunyoga manzur bo'lmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezalyutsiyani qabul qilish taklifi O'zbekiston tomonidan ilgari surilgani va ushbu hujjatning qabul qilinishi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Muqaddas dinimizning ezgulik, insonparvarlik dini ekanini, ma'naviyatga, ilmga undashini, ota-bobolarimiz bunga beqiyos hissa qo'shganlarini tasdiqlovchi ilmiy natijalarni ko'rish va yangi tadqiqotlarga zamin yaratish – biz uchun asosiy maqsaddir.



9

[https://t.me/iftimoiy\\_manaviy\\_tadqiqotlar](https://t.me/iftimoiy_manaviy_tadqiqotlar)

